“KELIShILGAN”

Surxondaryo viloyati
Maktabgacha va maktab ta’limi
boshqarmasi boshlig‘i

_____ **X. Mamadiev**
2026 y. “___” _____

“TASDIQLAYMAN”

Surxondaryo viloyati hokimligi
«Yagona buyurtmachi xizmati» DM
direktori

_____ **A.Yuldoshev**
2026 y. “___” _____

Surxondaryo viloyati, Uzun tumani “Yangi shahar” MFYdagi 17-son MTTni rekonstruksiya qilish (90 o‘rinli bino qurish) obyekti bo‘yicha

Ishchi loyiha hujjatlarini ishlab chiqish uchun

LOYIHALAShTIRISh TOPShIRIG‘I

Termiz -2026 yil

T/r	Asosiy ma'lumotlar va talablar nomi	Asosiy ma'lumotlar va talablar mazmuni
1	2	3
1	Obyektning nomi	Surxondaryo viloyati, Uzun tumani "Yangi shahar" MFYdagi 17-son MTTni rekonstruksiya qilish (90 o'rinli bino qurish).
2	Qurilish joyi	Surxondaryo viloyati, Uzun tumani "Yangi shahar" MFY
3	Buyurtmachi	Surxondaryo viloyati hokimligi «Yagona buyurtmachi xizmati» DM. Manzil: Termiz shahri, Novbog' ko'chasi, 5-uy, tel: (+998) 76-221-49-71, (+998) 76-221-49-85, web-site: iksez5@mail.ru, mas'ul shaxs: K.Turdiev.
4	Ishlab chiqish uchun asos	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 27 dekabrdagi "2026-2028 yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-393-son qarori 20-ilovasi.
5	Qurilish turi	Rekonstruksiya
6	Moliyalashtirish manbai	Respublika byudjeti mablag'idan
7	Ob'ektning loyihaviy quvvati	90 o'rin
8	Qurilishning taxminiy bahosi mln. so'm	Qurilish narxi ishchi loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilgandan so'ng "Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish respublika markazi"DM xulosasiga ko'ra aniqlanadi. (Ajratilgan limit qiymati- **4 322,0 mln. so'm**).
9	Loyiha tashkiloti nomi	«Shaffof qurilish» MAT orqali aniqlanadi.
10	Pudrat tashkiloti	«Shaffof qurilish» MAT orqali aniqlanadi.
11	Loyiha bosqichi	Bir bosqichli ishchi loyihasini ishlab chiqish (Namunaviy loyihani joyiga bog'lash)
12	Qurilishda loyihaning asosiy shartlari	Seysmik hududlarda loyihalashning texnik reglamentlarida nazarda tutilgan chora-tadbirlarni e'tiborga olgan holda loyihani ishlab chiqishni amalga oshirish; Seysmikligi bo'lgan hudud uchun loyihaning asosiy yechimi (QMQ 2.01.03.-2019 "Seysmik hududlarda qurilish") ga asosan ta'minlansin. ShNQ 2.01.02-04ga muvofiq yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilish; ShNQ 2.07.02-22 ni hisobga olgan holda nogironligi bo'lgan shahslarga to'siqsiz muhit yaratish; Qurilishni tashkil etish loyihasini (QTEL) ishlab chiqish; Bino osti muhandislik geologik qidiruvlar xulosalari ShNQ 1.03.04-22 talablariga muvofiq buyurtmachi tomonidan taqdim etiladi. Tashqi havoning qo'yidagi iqlimiy ko'rsatkichlari inobatga olinsin: Shamol bosimi, qor qatlami vazni, hisobiy zilzilaviylik, yer relefi, yer osti suvlari, gruntlar(cho'kadigan, cho'kmaydigan); **Loyiha smeta hujjatlari to'liq hajmda ishlab chiqilgandan so'ng buyurtmachiga topshirishda, alohida ko'rinishda loyihada qo'llanilgan quyidagi asosiy qurilish materiallari sarfining yig'ma jadvali ko'rinishida topshirish talab etiladi:** 1.Beton maxsulotlari(har bir sinfi bo'yicha); 2.Metall Armatura maxsulotlari(har bir sinfi bo'yicha); 3.Nometall armaturalar;

		4.Yuk ko‘taruvchi devor materiallari-pishiq g‘isht; 5.g‘ovakli beton-Gazoblok materiallari; 6.Issiqlik himoya qatlami materiallari(turlari bo‘yicha); 7.Metall prokat(ugolok, profil va boshqalar); 8.Tom qoplama-profillangan metall tunika); 9.Yog‘och mahsulotlari; 10.Deraza romlari-turlari bo‘yicha; 11.Eshik romlari;
13	Ob’ektning asosiy texnik - iqtisodiy ko‘rsatkichlari, quvvati, unumdorligi, ishlab chiqarish dasturi	MTT binosi qavatliligi –hududning va tarbiyalanuvchilar sonidan kelib chiqib 2; 3 qavat qilib loyihalashga ruxsat etiladi. **A. Guruxlar soni:** 3 ta band bo‘lgan gurux sig‘imligi: - 90 o‘rinli, bir guruxda 30 ta bola; **B. Binolarning umumiy maydoni – loyiha yechimlari asosida aniqlanadi.** **C. Maktabgacha ta’lim muassasa uchun loyihada quyidagilar ko‘zda tutilishi lozim:** - Mudira xonasi (1 ta xona); - Xamshira va muolaja xonasi (1 ta xona); - metodist xonasi (1 ta xona); - logoped va psixolog xonasi; - universal zali (musiqa, mashqlar); - vestibyul; - sanitar bo‘lmasi; Oziq-ovqat bloki (yarim tayyor maxsulotlarda): - Oshxona (pishirish xonasi), tarqatish va tayyorlash xonasi (1 ta xona); -Ovqatlanish zali *(umumiy sig‘imdan kelib chiqib amaldagi me’yorlar asosida)*; - oshxona va ovqatlanish zali idishlarini yuvish xonasi (1 ta xona); - quruq maxsulotlarni saqlash joyi (1 ta xona); - xodimlar xonasi dushi bilan; - yuvish va dazmollash xonasi; - sanitar tugunlar; - qoldiq ovqatlar saqlash xonasi (1 ta xona). **Diqqat!!!** O‘quv blogi loyihasida qo‘shimcha ehtiyojlar uchun xonalar, maydonlarni o‘zboshimchalik bilan ko‘zda tutishga yo‘l qo‘yilmaydi.
14	Umumiy xizmat ko‘rsatish korxonalari orasida qurilgan turar joy uylarni vazifasi va turi, sig‘imi, qabul qilish qobiliyati,tarkibi va xonalar maydoni, qurilish hajmi	Talab etilmaydi.
15	Mahsulotlarni raqobatbardoshlik sifatiga va ekologik parametrlariga talablar. Korxonaning texnologiyasi va rejimiga bo‘lgan talablar	Talab etilmaydi.
16	Shaharsozlik yechimlari, bosh reja, ko‘kalamzorlashtirish, obodonlshtirish	Hududni Bosh rejasi, obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish va irrigatsiya tarmoqlari ishlab chiqilsin. Ko‘kalamlashtirish ishlari hududga tutash hududlarda ham

		kamida 25% amalga oshirilishi ko‘zda tutilsin. *(2023 yil 23 noyabrdagi O‘z. Resp. PF-199).*
17	Ob’ektni texnologik jihozlash	Funksional va me’yoriy talablarga ko‘ra Markazlashtirilgan holda ekspluatatsiya tashkiloti tomonidan amalga oshiriladi.
18	Arxitektura-qurilish, hajmli-rejalashtirish va konstruktiv yechimlar, blokirovkalash shartlari, binolarni pardozlashga talablar.	Loyihaviy va qurilish yechimlari zamonaviy dizayn yechimlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilsin. Loyihadagi barcha yechimlar mavjud standartlar va texnik shartlarga mos kelishi va ekologik toza materiallardan foydalanishni hisobga olish lozim; -Loyihalashda, texnologik va energiya tejovchi zamonaviy tuzilmalar va texnologiyalardan foydalanishga e‘tibor qaratilsin; -Binoga bosh kirish qismida tambur orqali kirish ko‘zda tutilsin; -Binoga kirish qismida pandus ko‘zda tutilsin. -Zinapoyalar yig‘ma yoki monolit temir beton; -Bino ichida yo‘laklar kengligi eng kamida 2.6m -zinapoyalar katagidagi tutqich panjalari balandligi h=0,90 m, h=1,2 m (ShNQ 2.08.02-09)ga muvofiq, hamda Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining ms.uz saytidagi namunaviy loyiha yechimlari asosida qabul qilinsin; -Devorda quvurlarni turtib chiqishga yo‘l qo‘yilmasin -Binoning balandligi poldan shiftgacha kamida 3,0m. Guruxlar xonalari yo‘laklar bo‘ylab ikki tomonlama joylashgan taqdirda, yorug‘likni taminlash maqsadida oynavand eshiklarni har xil oraliqda joylashtirish bilan yoritish ta‘minlansin.
19	Xonalar tarkibi, foydalanish maqsadi	ShNQ 2.08.02.-23 (Jamoat binolari va inshoatlari), ShNQ, QMQ va Idoraviy qurilish normalari (IQN) asosida belgilanadi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining ms.uz saytidagi namunaviy loyiha yechimlari asosida qabul qilinsin.
20	Xodimlarni aniq mutahassisligi bo‘yicha xonalarga taqsimlanishi	90 o‘rinli, bir guruxda 30 ta bola; 1 bola uchun 2.7-3.0m2 dan kam bo‘lmagan holda gurux xonalari, umumiy bitta gurux maydoni 90 m2 rejalashtirilsin.
21	Bino qavatlarining balandligi	Bino qavatlarining balandligi -3.3 metr.
22	Erto‘ladan foydalanish maqsadi	Talab etilmaydi (MTT binolariga yerto‘la, yarim yerto‘la va texnik yer osti qavatlarini joylashtirish talab etilmaydi).
23	Me’moriy va konstruktiv yechimlarga, yuk ko‘tarib turuvchi va tashqi himoya konstruksiyalarga va ularning materiallariga qo‘yiladigan asosiy talablar	Seysmikligi bo‘lgan hudud uchun loyihaning asosiy yechimi (QMQ 2.01.03.-2019 “Seysmik hududlarda qurilish”) ga asosan ta’minlansin. O‘quv binosining ±0.000 satxi belgisi hududning iqlim sharoitidan kelib chiqib va yerning geologik izlanishlar xulosasiga muvofiq qabul qilinsin. ***-konstruktiv sxema*** — QMQ 2.01.03-2019 ning 3.1 jadvalida keltirilgan konstruktiv tizimlardan I. 1.2.2.Ko‘p qavatli yaxlit temirbeton karkaslar, jumladan, yig‘ma orayopmalar: a) diafragmasiz ortogonal yo‘nalishda rigelli ramalar; II. 2. Yaxlit temirbeton devorlar -talablarining biri asosida ishlab chiqish talab etiladi.Bunda: ***-poydevor*** –Tasmasimon monolit temirbeton, Aloxid turuvchi(stakannogo tipa) quyma hamda yaxlit monolit

		temirbetondan. Poydevor beton sirtlari devorlari grunt namligidan vertikal va gorizontal yopishtiriladigan rulonli (okleechniy) namdan va sho‘rlanishga qarshi himoya qoplamalaridan foydalanish inobatga olinsin. **-tashqi devorlar** - GOST 31360-2007 bo‘yicha mustahkamligi D450dan — D600gacha bo‘lgan avtoklav usulida zavod sharoitida ishlab chiqariladigan G‘ovakli beton (Gazoblok) bloklari. Bloklarning qalinligi issiqlik texnikasi hisobi asosida 200-300mm qabul qilinsin; ***-xonalararo to‘siq devorlarlar*** – GOST 31360-2007 bo‘yicha mustahkamligi D450dan — D600gacha bo‘lgan avtoklav usulida zavod sharoitida ishlab chiqariladigan G‘ovakli beton (Gazoblok, Penoblok) bloklari. Bloklarning qalinligi 100-200mm qabul qilinsin; ***-orayopma va tomyopmalar*** -qalinligi 220 mm bo‘lgan yig‘ma temir-beton plitalar; - yaxlit monolit temirbetondan ko‘zda tutilsin, monolit temirbeton orayopmalar qalinligi seysmik ta’sirlarga kompleks hisob bo‘yicha qabul qilinsin; **-zinapoyalar** zavod sharoitida tayyorlangan yig‘ma temir-betondan ko‘zda tutilsin yoki monolit temirbetondan; Zinapoya marshlari monolit temirbetondan bo‘lganda uni marmar plitkalarida qoplash ko‘zda tutilsin. **Tom turi** - chordoqli, shomollatish tuynuklari bilan; - tashqi devorlarda qalinligi issiqlik muhandislik hisob-kitoblari asosida olingan, hajmiy og‘irligi 120kg/m3 dan kam bo‘lmagan *(binoning birinchi qavatida 140kg/m3 va ikki va undan yuqori qavatlarda 120kg/m3)* bo‘lgan yonuvchanligi NG bo‘lgan PPJ-100 mineral plitalari issiqlik himoya qatlami hamda uning ustidan shisha tolali to‘r bilan mustahkamlangan yelimli suvoq qatlami ko‘zda tutilsin. Issiqlik himoya qatlami plitalarining qalinligi issiqlik texnikasining 2-darajasi hisobi talablari asosida qabul qilinsin; -Tom issiqlik qatlami – issiqlik texnik hisob kitobi asosida olinadi. -Yong‘in xavfsizligi talablaridan kelib chiqib, chordoqli-shamollatiladigan tomlardagi yog‘och konstruksiyalarni metall tom konstruksiyali tom ko‘rinishida loyihalash va metall konstruksiyalarni korroziyaga qarshi himoyalash choralari ko’rilsin; -tom qoplamalari qalinligi kamida 0,55 mm qalinlikdagi ikki tomonlama polimer qoplamali profillangan metall tunikadan; -Tarnov, lotoklar va quvurlar 0,55-0,6 mm qalinlikdagi ikki tomonlama polimer qoplamali metall tunikadan ko‘zda tutilsin; -Suv ketkazish quvurlar diametri d=120 mm. **Tashqi bezaklash ishlari:** Tashqi pardoz elementlari. ShNK 2.01.04-18 “Qurilish issiqlik texnikasi” hamda mazkur ShNK ga 2024-yil 26-martdagi o‘zgartirish me’yorining tegishli bandlari asosida issiqlik himoyasi talablaridan kelib chiqib tashqi devorda Issiqlik himoya qatlami sifatida qiyin yonuvchan, hajmiy og‘irligi 120-140kg/m3 bo‘lgan mineral tolali plitalar ko‘zda tutilsin. Sokol qisminida issiqlik himoyasini

		inobatga olib, pardoz qoplamasi sifatida tashqi tomoni tayyor pardoz qoplamasi bilan qoplangan penopoliuretan to'ldiruvchili sendvich panel ko'rinishidagi fasad qoplamasida qoplash ko'zda tutilsin. Ichki va tashqi pardozlash ishlari, O'zbekiston Respublikasi xududida ishlab chiqariladigan zamonaviy pardozlash materiallaridan foydalanilgan. ***-binoga tambur*** orqali kirilsin; Binoga kirish qismida ***-pandus*** loyihalashtirish ko'zda tutilsin; ***-deraza*** -Deraza romlar- kengligi 1.4 x1.7(h) bo'lgan, yorug'lik yetkazish maydoni 1/8 nisbatda olinadi *(pol yuzasi/8=derazaga m2),* shamollatish uchun mexanizmli ochiladigan derazalar bir kamerali, ikki qavat oynali, energo tejamkor PVX romlar o'rnatish. ***Fortochkasiz og'ma derazalar o'rnatilishi ko'zda tutilsin.*** *(O'z.Resp.Q va O'J vazirligi 2024-yil."14"fevral 14-06/1605-sonli xati).* - ichki deraza tokchasi PVX yoki marmar plita materialidan; - tashqi deraza tokchasi galvanizli (otsinkovanniy) metalldan yasalsin. ***-vitrajlar***-alyuminiy profildan, temperli oynali; **Eshiklar** -yuqori sifatli MDF va alyumin materialaridan. – Gurux xonalarining eshiklari – yuqori sifatli MDF va alyumin materiallaridan; -yuvish va dazmollash, quruq mahsulotlar saqlash xonalari yong'inga chidamli materialdan eshiklar o'rnatilsin. Eshiklar ostonasiz (porogsiz) o'rnatilishi ko'zda tutilsin, suvli va namlik yuqori bo'lgan xonalardan tashqari (Sanitar tugunlar, yuvinish xonasi eshiklari ostonasi bilan). -Zinapoya katagidagi evakuatsiya yo'lagi 1-qavatda eshiksiz bo'lishi ta'minlansin. -Qolgan qavatlardagi zinapoyalar katagi eshiklari kengligi 1,5 m x 2.1 (h)m qilib belgilansin. -Ma'muriy xonalarda kengligi 0,9 m MDF materiallardan tayyorlangan eshiklar; -Texnik xonalardan va sanitar xonalardan tashqari darcha eshiklarni ostonasiz (porogsiz) loyihalash ko'zda tutilsin. **Ichki bezaklash:** ***Shift*** - Beton yuzalarni shpatlyovka bilan tekislash hamda tarkibida suv emulsiyasi bo'lgan ochiq rangli bo'yoqlardan foydanalisin; ***-Devorlar*** - Yaxshilangan yelimli shpatlyovka va ochiq rangli tarkibida suv emulsiyasi bo'lgan bo'yoqlar bilan dizayn asosida bo'yash ko'zda tutilsin; ***-sanitar tugunidagi*** (sanuzel) devorlar sanitar uskunalar joylashgan taraflari (nam hududlar) -h=1,5 m balandlikda keramik plitkalar bilan qoplansin. Qolgan pastki qism devorlari akril bo'yoq bilan, devorning tepa qismi suvemulsiyasi bilan bo'yalsin. **Pollar** – ma'muriy xonalar -PVX linoleum RELIN (GOST 7251) materialidan, qalinligi -2.0 -2.5mm - guruxlarda, kiyim almashtirish xonasi, universal zalda, ovkatlanish zallarida va koridorda pol qoplamalari 40x40

		yog‘och reykalaridan (palubnыy); -Xoll-foye, yo‘laklar -PVX linoleum RELIN (GOST 7251) materialidan, qalinligi -2.0 -2.5mm; - Yig‘ma temir beton zinapoyalar qoplamalari ikki qatlam akril bo‘yoq bilan bo‘yash, zinapoya marshlari monolit temirbetondan bo‘lganda marmar plitkalarida qoplash ko‘zda tutilsin; -Suvli va namgarchilik bo‘lgan xonalarda gidroizolyatsiya qatlami qalinligi 3 mm (2 ta qatlam), 40x40sm sirpanmaydigan keramik plitkalardan bajarilib, plintuslari ham xuddi shu materialdan baladligi h=20 sm qilib belgilansin. -Kirish qismlari zinalari -sirpanmaydigan Marmar plitalardan; -Plintuslar- MDF materialidan 7.0-10sm balandlikda yoki Relin materialini devorga tomon 7.0-10.0 sm balandlika qayrilib o‘rnatilsin. - Yuqorida ko‘zda tutilmagan xonalarning funksional vazifasidan kelib chiqqan holda hamda belgilangan talab doirasida namunaviy loyixalar yechimlaridan foydalanish talab etiladi.
24	Obodonlashtirish va kichik arxitektura shakllariga (MAF) talablar	-MTT hududini perimetri bo‘ylab to‘siq bilan o‘rash (metall panjara, yig‘ma beton (kassetali) devor to‘siqlar); -Hududning to‘siq devorlari 2 turda bo‘lishi ta‘minlansin, To‘siq devorlarini o‘rnatishda MTTning xududda joylashuvi e‘tiborga olinsin: -balandligi 1,6 m bo‘lgan (kassetali) yig‘ma beton devorlar hududning orqa va yon tomon qismlari uchun; -balandligi 1,6 m bo‘lgan metall panjara to‘siq devor old tomon uchun. MTT hududida quyidagi inshootlar joylashtirilsin: - MTT hududiga tutash hududlarda avtoturargoh maydonchalari(nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun); - Hududni LED yoritgichlaridan foydalangan holda yoritish. Tashqi yoritish tizimida quyosh panellaridan foydalanilsin. Tashqi yoritish tizimi yoritilganligi (lyuksi) QMQ 2.01.05-24 tabiiy va sun‘iy yoritish me‘yoriy qoidalar asosida bajarilsin.
25	Piyoda yo‘laklarining o‘lchovlari va turlari	ShNQ 2.05.02-23 “Avtomobil yo‘llari” -Kirish va ichki yo‘llari, shu jumladan yong‘inga qarishi transport vositalar uchun harakatlanish yo‘llari.-asfaltobeton qoplamali, -piyodalar uchun yo‘laklar asfaltobeton yoki beton qoplamali.
26	Obodonlashtirish ish turlari va daraxtlar soni	-Bino va inshoatlarini joylashtirishda mavjud daraxtlarga zarar yetkazmagan holda loyihalash, namunaviy yechimlar ishlab chiqish talab etiladi. -Daraxtlarning iqlimga va hududga mosligi, suvsizlikka chidamliligi, ko‘p yillikligi ko‘zda tutilsin; Yangi quriladigan maktab Obektlarining o‘z va tutash hududlarida “yashil bog” va “yashil belbog‘” lar barpo etish va ko‘kalamlashtirish tadbirlarini amalga oshirilishi ko‘zda tutilsin.
27	Muxandislik va texnologik uskunalar, muxandislik	**Elektr ta’minoti:** -elektr ta’minotining ishonchlilik darajasi bo‘yicha-II toifa

	tarmoqlarini loyihalash uchun asosiy talablar Texnologik yechimlar va jihozlar	***-energiyani tejash bo'yicha chora -tadbirlar;*** -binoning elektr yoritgichi QMQ 2.01.05-19 va QMQ 2.04.17-19ga shuningdek, elektr inshootlarini o'rnatishning amaldagi qoidalariga (PUE) muvofiq 3 simli mis sim yordamida ishlab chiqilishi kerak, favqulotda yoritishni ta'minlash. -Tuproqlama (zazemleniya) va nollanma (zanulenie) bilan ta'minlansin. -Elektr energiyasini hisobga olish uchun elektr energiyasini monitoring qilish va hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimini (ASKUE) taqdim etidishi ko'zda tutilsin. ***Elektr ta'minoti ulanish bo'yicha ta'lablar:*** MTT muassasalari binolari ichki elektr silovoy tarmoqlari uchun polivinilxlorid (PVX) izolyatsiyali mis kabellar (ko'p simlik) va ichki yoritish tizimida AVVG markali alyumin kabellar bilan o'tkazish tavsiya yetiladi. Tashki ta'minot tarmoklari 0,4 kV alyuminiy kabellar bilan amalga oshiriladi. -Binolarga yoqqichlarni (vklyuchatel) pol sathidan 0.90 m da va rozetkalar pol sathidan h=1.8 m balandlikda o'rnating (QMQ 2.04.17-2019 p.12.34.), Gurux xonalarda rozetkalarni himoya qopqoqli bo'lishi sharti bilan pol sathidan 0,5 m balandlikda o'rnatishga ruxsat etiladi. -MTTlarda yoritish tizimi uchun svetodiod yoritgichlar, svetodiod lampalar va LED panelli yoritgichlar ishlatilishi ko'zda tutilsin; - umumiy foydalanish joylari, ya'ni yo'laklarda va zinapoya kataklarida yoritish tizimi uchun harakat sensor datchiklaridan foydalanilsin; -tashqi va ichki yoritish tizimida quyosh fotoelektrik qurilmalaridan foydalanilsin. Shuningdek ichki issiqlik tizimi fankoyllar uchun rozetkalar o'rnatilishi ko'zda tutilsin. Rozetkalarni himoya qopqoqli bo'lishi sharti bilan pol sathidan ***0,5 metr balandlikda o'rnatishga*** ruxsat etiladi. -Elektr tarmoqlari polivinilxlorid (PVX) izolyatsiyali mis kabellar (ko'p simlik) va VVG markali yonuvchanligi past PVX plastmassali qobiq bilan o'tkazish tavsiya etiladi MTT muassasalari binolari tashqi ta'minot tarmoqlari 0,4 kV alyuminiy kabellar bilan amalga oshiriladi. -Tashqi va ichki yoritish tizimida quyosh fotoelektrik qurilmalaridan foydalanilsin. **Issiqlik va shamollatish ta'minoti tizimi:** QMQ 2.04.07-99 "Issiqlik tarmoqlari" talablariga asosan ishlab chiqiladi. -Ta'minot tarmoqlari uchun loyihaviy yechimlar mahalliy ishlab chiqaruvchilarning zamonaviy ilg'or texnologiyalari va uskunalaridan foydalanishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. -Xonalarning nisbiy namligi, isitish tizimini loyihalash harorati va binoga havo almashinuvi oralig'i meyoriy hujjatlarga muvofiq qabul qilinishi kerak. ***-Issiqlik va shamollatish ta'minoti tizimida muqobil isitish uskunalari - quyosh panellari, geliokollektorlar, issiqlik nasoslari va fankoyil tizimini qo'llash ko'zda tutilsin.***

		-Alternativ issiqlik manbai sifatida-tabiiy gaz va qattiq yonilg‘i (ko‘mir) qozonlari bo‘lgan hamda ko‘mir saqlash ombori (konteynerdan) bo‘lgan alohida mahalliy qozonxona bo‘lishi ta’minlansin. -Suv aylanmasi uchun nasos o‘rnatilishi lozim. -Isitish asboblari-fankoyl -Quvur ichlaridagi suvning sovishini oldini olish uchun quvurlarni issiqlik izolyatsiyasini ta’minlansin. -Xonalarni shamollatish-tabiiy, ochiladigan oynalar orqali amalga oshiriladi.-Loyihalashda QMQ 2.04.05-97 va QMQ 2.01.04-18 talablariga rioya qiling. -Loyihalashda QMQ 2.01.04-97 bo‘yicha issiqlik muhandisligi uchun yangi energiya tejovchi yechimlarni loyihalash bo‘yicha qo‘llanma va QMQ 2.01.18-2000* energiya iste’molining yangi standartlarini hisobga olgan holda binolarni loyihalash bo‘yicha qo‘llanmadan foydalaning.* **Suv ta’minoti:** Bino hududi va asosiy binosi shahar va qishloq punktlarini rejalashtirish va rivojlantirish bo‘yicha gigiena talablariga va QMQ 2.04.01-98 “Binolarning ichki suv va kanalizatsiyasi”, QMQ 2.04.02-97 talablariga muvofiq ichimlik, o‘t uchirish va issiq suv ta’minoti, oqova suv tizimi bilan ta’minlanishi shart. Suv sifati amaldagi O‘zDSt 950-2011 ichimlik suvi standartlariga muvofiq sanitariya standartlariga javob berishi kerak. Sovuq va issiq suv ta’minoti tizimlari bilan oshxona, yuvinish, bolalar va xodimlar uchun hojatxonalar, tibbiyot xonalari, qo‘l yuvgichlar, xo‘jalik ehtiyojlari uchun jihozlanishi lozim. Qo‘l yuvgich va yuvinish xonalariga berilayotgan issiq suv harorati 37 gradusdan oshmasligi lozim. Ovqatlanish blokiga berilayotgan issiq suv harorati 65 gradusdan kam bo‘lmasligi lozim. Sovuq va issiq suv quvurlari PVXdan amaldagi qoidalar talablariga muvofiq materiallardan tayyorlangan bo‘lishi kerak. QMQ 2.04.02-97 Mavsumiy yog‘ingarchilik suvlarini mavjud oqova suvlar tizimiga yo‘naltirish hamda temir beton lotoklari orqali chiqarilishini ta’minlash. Sanitariya -gigienik holatni yaxshilash va hududlarni joylashuvini e’tiborga olgan holda, ichimlik suvini tozalovchi (filtrlar) uskunalar o‘rnatish yo‘li orqali yanada sifatini ko‘tarish. -Suv ta’minoti ta’minlashda zarurat tug‘ilganda artizan quduqlar o‘rnatilishi ko‘zda tutilsin. Tashqi birlashgan kommunal va ichimlik suvidan yong‘inga qarshi suv ta’minotini ta’minlang. - Agar tashqi va ichimlik suvi ta’minotidagi bosim o‘t uchirish ehtiyojlari uchun yetarli bo‘lmasa, yong‘inga qarshi rezurvuar ta’minlang. Yong‘inga qarshi quvurlar GOST 10704-91 bo‘yicha po‘lat quvurlardan qilinishi hisobga olinsin. Kirish qismida ichimlik suv sarfini o‘lchashni ta’minlang. Texnik shartlarga asosan joyiga chiqib o‘rganish. **Oqova (kanalizatsiya):**

		-Oqova tarmoqlari QMQ 2.04.01-98 va QMQ 2.04.03-19ga muvofiq amalga oshirilishi kerak. Markazlashtirilgan oqova suvlar tizimi mavjud bo‘lmaganda: ***-Ichki kanalizatsiya tarmoqlari yuqori quvvatli va gigienik xususiyatlarga ega, biologik tozalash uslubida oqova suvlarni 98% texnik suvga aylantirish imkoniyatiga ega, polipropilen (PP) avtonom kanalizatsiya tizimi ko‘zda tutilmog‘i lozim;*** -Tiqilib qolish mumkin bo‘lgan joylarda kanalizatsiya quvurlarini qayta ko‘rib chiqish va tozalash imkoniyatini ta’minlash. -Oqova suvlarni tozalash uskunasi, polipropilen (PP) mahsulotidan bo‘lib, avtonom kanalizatsii tizimi o‘lchamlari, chiqindi qabul qilish kamerasi, jami hajmi, sutkasiga suvni qayta ishlab chiqish maktab quvvatidan kelib chiqib hisoblab chiqilsin va 98% texnik suvga aylantira berilishi lozim. -Oqova (kanalizatsiya) magistral quvurlarini yotqizish shaxtalarda amalga oshirilishi kerak. **Ichki issiq suv ta’minoti:** MTT quvvatidan, bolalar sonidan kelib chiqib ***quyoshli issiq suv ta’minoti qurilmalari hamda elektr suv isitgich ko‘zda tutilsin.*** ShNQ 2.01.02-04 (Bino va inshoatlarning yongin xavfsizligi)ga muvofiq yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilinsin. Issiq suv magistral quvurlarini yotqizish shaxtalarda amalga oshirilishi kerak. **Integratsiyalashgan xavfsizlik tizimi:** Loyihada amaldagi me’yor va talablarga muvofiq binoni yong‘in signalizatsiyasi va ogohlantirish tizimi, videoko‘zatuv tizimi bilan jihozlash nazarda tutilada. **Yong‘inni o‘chirish** -ShNQ 2.04.09-07 (Bino va inshoatlarni yong‘inga qarshi avtomatlashtirish) talablariga muvofiq “Yong‘indan himoya qilish tizimlari. Avtomatik yong‘in signalizatsiyasi va yong‘inga qarshi qurilmalar” joriy standartlarga movofiq loyihalashni amalga oshirish. **-Zaif quvvatli tizim:** Internet tarmoqlariga, yong‘in va xavfsizlik signallariga ulanishni ta’minlash. ShNQ 2.01.02-04 (Bino va inshoatlarning yongin xavfsizligi)ga muvofiq yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilinsin.
28	Tashqi muxandislik - kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish bo‘yicha yechimlar	Ob’ektlar hududidagi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini ko‘chirish, shuningdek, ichimlik suvi va oqova suv ta’minoti, elektr, gaz va aloqa tarmoqlarini tortib kelish tadbirlari amalga oshirilsin. Hudud ichidagi va tashqi muxandislik -kommunikatsiya tarmoqlari Arxitektura rejalashtirish topshirig‘i-2 qismi asosida texnik xulosa va texnik shartlarga amal qilgan holda loyihalashtiriladi.Texnik shartlar olish loyiha tashkiloti tomonidan ta’minlansin.
29	Quyosh panellari va quyoshli suv isitish kollektorlarining	ShNQ 2.04.16-23 “Quyoshli issiq suv ta‘minoti qurilmalari” talablariga asosan ishlab chiqiladi.

	quvvatlari.	- MTT quvvatidan kelib chiqib issiqlik hisob-kitob asosida quyoshli issiq suv ta‘minoti qurilmalari o‘rnatilishi ko‘zda tutilsin. - binoning quyosh panellari bilan ta‘minlanganlik quvvati hisobiy elektr energiyaning 25% dan kam bo‘lmagan miqdorini tashkil etsin. maktablarda quyosh modullarini (panellarini) o‘rnatish maktab hududiga joylashtirish ta‘minlansin. Quyosh modullarini hududga joylashuvi imkoniyati yo‘q maktab binosining tom qismiga joylashtirishga ruxsat etiladi.
30	Yoritish tizimi	Gurux xonalari yo‘laklar bo‘ylab ikki tomonlama joylashgan taqdirda, yorug‘likni taminlash maqsadida oynavand eshiklarni har xil oraliqda joylashtirish bilan yoritish ta’minlansin.
31	Energiya samaradorligi	Binoda energiya samaradorligi – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 9 sentyabrdagi “Energiya tejovchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklovchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-220-sonli Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 21 sentyabrdagi “Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ishlab chiqarishni jadallashtirish to‘g‘risida”gi 518-sonli qarori talablariga hamda ShNQ 2.04.16-18 “Quyoshli issiq suv ta’minoti qurilmalari” talablariga asosan ishlab chiqiladi. O‘zbekiton Respublikasi Vazirlar Mahkamasinig 02.06.2011 yildagi 161-sonli qaroriga muvofiq ob’ektning energiya samaradorligi oshirish bo‘yicha zamonaviy inovassion yechimlarni taqdim etish.
32	Avtomatlashtirish, TJ BAT va boshqaruvni markazlashtirish bo‘yicha asosiy talablar.	Talab etilmaydi.
33	Mehnat gigienasi va xavfsizlik rejimi talablari	Talab etilmaydi.
34	Atrof muhitni muhofaza qilish talablari	Atrof mihitga ta’sir ko‘rsatilishi to‘g‘risidagi bayonot loyihasi (AMTB) ishlab chiqish va vazirlikni hududiy davlat ekologik ekspertizasi markazlarida ekspertizadan o‘tkazish va iijobiy xulosa olish. Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida Atrof muhittga ta’siri bayonoti (AMTB) loyihasi ixtisoslashtirilgan tashkilot bilan shartnoma asosida Loyiha tashkiloti tomonidan tayyorlanadi. Maktabgacha ta’limlarni yangi qurilish jarayonida atrof-muhitni muhofaza qilish talablariga rioya etilishi ta’minlangan bo‘lishi kerak. Xususan, hududdagi daraxt va butalar hamda yashil maydonlarga zarar yetkazmaslik, hosil bo‘ladigan chiqindilarni o‘z vaqtida bartaraf etilishi ta’minlash.
35	Imkoniyati cheklangan odamlar uchun sharoitlarini ta’minlashga qo‘yiladigan talablar	ShNQ 2.07.02-22 ni hisobga olgan holda nogironligi va jismoniy imknoyati cheklangan shaxslar uchun to‘siqsiz muhit yaratish va binoga kirib chiqishda va foydlanishda barcha qulayliklar yaratishni qat‘iy inobatga olish. Ko‘taruvchi moslama qurilmasi ko‘zda tutilsin. Ijtimoiy inspeksiya , Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishilgan 2025-yil 17-yanvardagi 1-son

		qo‘shma yig‘ilish bayoni talablari inobatga olinsin. To‘rt qavatdan yuqori qavatli maktab binolarda nogironligi bo‘lgan shaxslarning qavatlarda to‘siqlarsiz harakatlanishi uchun bir dona 450 kg yuk ko‘tarish qobiliyatiga ega lift qurilmasi ko‘zda tutilsin.
36	Yong‘inga qarshi kurashish va havfsizligi bo‘limini ishlab chiqish bo‘yicha talablar	ShNQ 2.04.09-21 Bino va inshoatlarni yong‘inga qarshi avtomatlashtirish talablariga muvofiq “Yong‘indan himoya qilish tizimlari. Avtomatik yong‘in signalizatsiyasi va va yong‘inga qarshi qurilmalar” joriy standartlarga movofiq loyihalashni amalga oshirish ko‘zda tutilsin. ShNQ 2.01.02-04ga muvofiq yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilinsin. Zarur hollarda FVVning Yong‘in xavfsizlik boshqarmasi bilan kelishilishi lozim.
37	Loyihalashtirish uchun buyurtmachi tomonidan taqdim etiladigan dastlabki ma’lumotlar	Loyihalashtirish ishlari uchun buyurtmachi tomonidan birlamchi hujjatlar "Vazirlar Makamasining 2022 yil 23 noyabrdagi 665-son karori bilan tasdiklangan Nizom talablariga muvofiq" hamda ART-1 va ART-2 taqdim etiladi. -ShNQ 1.03.03-23ga muvofiq quriladigan bino osti muxandislik-geologik, Gidrogeologik izlanish ishlari xulosasi va M1:500 miqyosidagitopografik xarita. -Topografik xaritada mavjud bino va inshoatlar hamda yer osti va yer usti muhandislik kommunikatsiya tarmoqlari ko‘rsatilishi talab etiladi.
38	Favqulotda vaziyatlarda ogohlantirish va fuqaro muhofazasi bo‘yicha ishlab chiqilgan texnik muhandislik chora-tadbirlarga qo‘yiladigan talablar	Talab etilmaydi
39	Sanoat xavfsizligi bo‘yicha ishlab chiqilgan texnik muhandislik chora-tadbirlarga qo‘yiladigan talablar	Talab etilmaydi
40	Loyiha ishlarini bajarish uchun talablar	Obektlarning loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi PQ-332 son qaroriga binoan; -Ishchi chizmalar; -Mualliflik nazorati ishlarini amalga oshirish; Tanlov savdolari uchun zarur hujjatlarni tayyorlash. Tasdiqlangan standartlarga muvofiq rejalashtirilgan qurilish davriga mos keladigan narxlarda amaldagi narxlash tartibiga muvofiq ishlab chiqiladiga smeta hujjatlari ishlanilishi shart.
41	Smeta hujjatlarini tuzish usuliga talablar	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17 sentyabrdagi 579-sonli qarorining 4-chi bandiga asosan, 2021 yil 01-oktyabrdan boshlab, qurilishi markazlashtirilgan ob’ektlarning boshlang‘ich qiymati Davlat statistikasi qo‘mitasi rasmiy saytiga (stat.uz) joylashtirilib boriladigan qurilish materiallarining joriy narxlari, mashina va mexanizmlar xizmati uchun o‘rtasida narxlar, hamda o‘rtacha ish haqi ko‘rsatkichlaridan foydalangan holda shakllantirish. Qurilish materiallari va mexnat resurslari, shuningdek mashina mexanizmlarni hisoblash bo‘yicha tuziladigan

		smetalar tarkibida narxlar joriy qiymatlarda, ShNQ 4.01.16-09 "Qurilish bahosini shartnomaviy joriy narxlarda aniqlash qoidalari" talablari asosida hamda Buyurtmachi tomonidan markazlashgan yetkazib beriladigan qurilish materiallari ro'yxati asosida shakllantiriladi
42	Loyihalashtirilayotgan ob'ekt tarkibi	MTT hududida qo'yidagi bino va inshootlar ko'zda tutilsin: -Asosiy binolar normativ va me'yoriy talblari bo'yicha; -jismoniy tarbiya maydonchasi; -Dam olish joylari. -Suv ta'minoti uchun nasos zarur hollarda suv saqlash idishi bilan; -Tashqi eshiklarga soyabon o'rnatish; -Yong'inga qarshi zaxira suv hovuzi zarur hollarda, hajmi xisob kitoblar asosida ta'minlansin; - Chiqindilar uchun konteyner; - Hududning old tomonidan ochiq to'siqlar (ajurnoe ograjdenie); -Hududning yon va orqa tomonlaridan yopiq beton to'siqlar; -Qozonxona va yoqilg'i saqlash omborxonasi -Avtotutrgoh.
43	Ko'rgazmali materiallarni tayyorlash bo'yicha talablar	Zarur hollarda, loyihalash korxonasi tomonidan ob'ekt maketi, 3D- taqdimot, namoiysh albomlarini tayyorlash, shuningdek, taqdimot materiallari (slayd, video rolik va boshqalar) .
44	Korxonaning ishlash rejimi	Yil davomida
45	Ishlab chiqarish kooperatsiyasi. Korxona infratuzilmasi.	Talab etilmaydi
46	Tashqi transport aloqalari va ta'minot sxemasi	Talab etilmaydi
47	Qurilish mo'ljallangan muddatlar (yil)	Belgilangan muddatga asosan 2027 yil.
48	Loyihalashtirish va qurilishni o'ziga xos shartlari, ob'ektning murakablik toifasi	Talab qilinmaydi. Ob'ektning xavf-xatar toifasi bo'yicha murakkablik toifasi II
49	Loyiha hujjatlari o'zgartirishlar kiritish (loyiha tashkiloti tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etishni hisobga olmaganda)	Loyiha hujjatlariga o'zgartirish kiritish alohida imzolangan shartnoma va loyihalash uchun topshiriq asosida amalga oshiriladi. Topshiriqlarda loyiha hujjatlariga kiritiladigan o'zgartirishlar bayon etiladi.
50	Metall konstruksiyalarning va korxona sharoitida ishlab chiqiladigan muhandislik tarmoqlarining detallashtirilgan (KMD) chizmalarini ishlab chiqish.	Zarur holatda buyurtmachining talabi asosida loyiha tashkiloti tomonidan ishlab chiqiladi. Topshiriqda bunday hujjatlar ishlab chiqilishi zarurati ko'rsatiladi.
51	Qurilishni tashkil etish loyihasini (QTEL) ishlab chiqish	Qurilishni tashkil etish loyihasi (QTEL) -to'liq hamda ShNQ 3.01.01-03 ga muvofiq - Pudrat tashkiloti tomonidan ishlab chiqiladi (Loyiha tashkiloti tomonidan ishlab chiqilishi talab etiladi).
52	Qurilishning (qurilish montaj ishlari) ishlab chiqarish loyihasini (QIChL) tayyorlash, qurilish tashkilotlarining ehtiyojlari uchun vaqtincha bino va inshoatlar	Talab qilinmaydi. (Qurilish -pudrat korxonasi tomonidan ishlab chiqiladi)

	qurilishi uchun loyiha hujjatlarini ishlab chiqishga talablar.	
53	Qurilishda mualliflik nazorati	Mualliflik nazoratini olib borish loyiha tashkiloti tomonidan ob'ektning qurilish muddati bo'yicha ishlab chiqilgan reja-grafigi asosida bajariladi.
54	Korxonaning istiqboldagi kengayish, foydalanishga topshirish navbatdagi va qabul qilish komplekslarini ko'rsatish	ShNQ 3.01.04-19 "Qurilishi tugallangan ob'ektlarni foydalanishga qabul qilish" talablari asosida davlat qabul komissiyasi dololatnomasi rasmiylashtiriladi.
55	Loyiha - smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha talablar	Loyiha- smeta hujjatlarining zarur bo'lgan bo'limlarini viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi va viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi hamda buyurtmachi bilan kelishish talab etiladi. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 28-noyabrdagi 961-sonli hamda 2022-yil 20-apreldagi 200-sonli hamda bilan tasdiqlangan Nizom talablariga muvofiq amalga oshiriladi.
56	Taqdim etiladigan loyiha-smeta hujjatlarining nusxalari soni, bo'linmalarning tarkibi va mazmuniga bo'lgan talablar	Ishlab chiqilgan loyiha hujjatlari ekspertizaga taqdim etish uchun buyurtmachiga bir nusxada (qog'oz yoki elektron shaklida) taqdim etiladi. Ekspertizadan keyingi to'g'irlangan loyiha smeta hujjatlarining buyurtmachiga taqdim etiladigan nusxalari soni ShNQ-1.03.03-23 ning talablariga mos ravishda 3 nusxada taqdim etish shart. (smeta sar-hisobini 1 nusxa narxli va 2 nusxa narxsiz, qolgan barcha loyihalarni 3 nusxada hamda ularning elektron nusxalari to'liq beradi.)
57	Qurilish materiallari	Loyiha-smeta xujjatlarida qurilish materiallari klassifikatori xamda aloxida materiallar jadvali ko'zda tutilsin.
58	Qo'shimcha talablar	Zarur hollarda, buyurtmachi tomonidan loyiha tashkilotiga uning malakasi va tajribasiga qo'shimcha talablar qo'yiladi.

"Loyiha topshirig'i" Surxondaryo viloyati hokimligi «Yagona buyurtmachi xizmati» DM tomonidan ishlab chiqildi.

Izoh:

1) *Tender savdolarida g'olib deb topilgan Loyiha tashkiloti tomonidan, ob'ektni o'rganish natijalri bo'yicha* ***"Loyiha topshirig'i" ga qisman*** *o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.*

Surxondaryo viloyati hokimligi
«Yagona buyurtmachi xizmati» DM
bosh muhandisi

_____ **Ch.Norsaev**
2026 y. "___" _____

Surxondaryo viloyati hokimligi
«Yagona buyurtmachi xizmati» DM
loyiha bo'limi boshlig'i

_____ **T.Xo'jaqulov**
2026 y. "___" _____

my.gov.uz

Ўзбекистон Республикаси
Қурилиш ва
уй-жой коммунал
хўжалиги вазирлиги

№ 6819-9969-707c-168a-9ef8-6210-1846
Ҳужжат яратилган сана: 2026-01-21
Ариза рақами: 246933863

Ҳужжат берилган: "UZUN TUMANI 17-SONLI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI
СТИР: 207315206

Бино ва иншоотларни реконструкция қилиш ҳамда ўз ҳудудида қўшимча бино ва иншоотларни қуриш учун
РУХСАТНОМА

21.01.2026 12:11 даги 246933863-сон

1.	Кўриб чиқган ташкилот:	Uzun tumani qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi
2.	Мулкдорнинг номи:	17-MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI
3.	Объектнинг ишлар бажариладиган қисми:	Қисман
4.	Объект номи:	Нежилое здание или сооружение (Noturar bino yoki inshoot)
5.	Объект манзили:	Yangishahar MFY, Toshkent ko'chasi, 32-uy
6.	Объектнинг ер майдони:	2063.44
7.	Объектнинг қурилиш майдони:	521
8.	Кадастр рақами:	19:12:40:01:03:0040
9.	Қуйидаги ишларни бажариш учун рухсат берилди:	ТУМАНДАГИ "UZUN TUMANI 17-SONLI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASIНИ MAKTABGACHA TALIM TASHKILOT BINOSINI O'RNIDAN ZAMONAVIY KO'RINISHDA 90 O'RINLI BINO QAYTA QURISH UCHUN RUXSATNOMA BERISH UCHUN ШНК ТАЛАБЛАРИ АСОСИДА МАСОФА САКЛАГАН ХОЛДА РУХСАТЭТИЛДИ.
10.	Мутахассис:	SHODMONOV MURADULLA SALOXIDDINOVICH
11.	Архитектура шахарсозлик кенгаши баёнининг рақами:	Архитектура шахарсозлик кенгашининг хулосаси талаб этилмайди
12.	Архитектура шахарсозлик кенгаши баёни берилган санаси:	Архитектура шахарсозлик кенгашининг хулосаси талаб этилмайди



Рухсатнома олингандан сўнг қурилиш-монтаж ишларини бошлашдан олдин:
1. Архитектура-режалаштириш топшириғини ишлаб чиқиш.
2. Лойиҳа ташкилоти томонидан тайёрланган лойиҳа ҳужжатларини қурилиш органлари билан келишиш. Бунда:
нотурар бино ва иншоотлар 300 метр кубдан ортиқ бўлганда, якка тартибдаги турар жойлар икки қаватдан юқори (цоколни ҳисобга олмаган ҳолда), баландлиги ер юзасидан 12 метрдан ва (ёки) 500 кв.метрдан ортиқ бўлганда:
а) объектнинг зилзилага бардошлилиги ва ёнғин хавфсизлиги бўйича лойиҳавий ечимлари тўғрисида экспертиза органларидан ижобий хулоса олиш;
б) Қурилиш соҳасида назорат бўйича ҳудудий инспекциялардан қурилиш-монтаж ишларини бошлаш учун объектни рўйхатдан ўтказиш.
3. Бино ва иншоот қуриб битказилгандан сўнг кадастр паспортини расмийлаштириш, қурилиш-монтаж тугалланган бино ва иншоотларни фойдаланишга қабул қилиш ҳамда унга бўлган ҳуқуқни давлат рўйхатидан ўтказиш талаб этилади.
Изоҳ. Мазкур рухсатнома қурилиш-монтаж ишларини бошлаш учун асос ҳисобланмайди.

Мазкур ҳужжат Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 сентябрдаги 728-сон қарорига мувофиқ Ягона интерактив давлат хизматлари порталида шакллантирилган электрон ҳужжатнинг нусхаси бўлиб, давлат органлари томонидан ушбу ҳужжатни қабул қилишни рад этишлари қатъиян тақиқланади. Ҳужжат ҳақиқийлигини repo.gov.uz веб-сайтида ҳужжатнинг ноёб рақамини киритиб ёки мобил телефон ёрдамида QR- кодни сканер қилиш орқали текшириш мумкин.

5561

my.gov.uz

Ўзбекистон Республикаси
Қурилиш ва
уй-жой коммунал
хўжалиги вазирлиги

№ 3926-2469-9eb3-174f-def8-0975-7292
Ҳужжат яратилган сана: 2026-02-25
Ариза рақами: 262735632

Ҳужжат берилган: "SURXONDARYO VILOYATI HOKIMLIGI YAGONA BUYURTMACHI XIZMATI" DAVLAT MUASSASASI
СТИР: 200474347

АРХИТЕКТУРА-РЕЖАЛАШТИРИШ ТОПШИРИҒИ
2026-02-25 13:30 й.
1722-1722221-257009 -сон

Лойиҳавий бино (иншоот) тури:	17-son maktabgacha ta’lim tashkilotini rekonstruksiya qilish (90 o‘rinli qo‘shimcha bino qurish)
Лойиҳавий бино (иншоот)нинг манзили:	Uzun tumani “Yangi shahar” mahallasi
Лойиҳавий бино (иншоот)нинг буюртмачиси:	"SURXONDARYO VILOYATI HOKIMLIGI YAGONA BUYURTMACHI XIZMATI" Davlat Muassasasi

Ушбу архитектура-режалаштириш топшириғи фақат лойиҳалаштириш ишларини амалга ошириш учун ҳуқуқий ҳужжат ҳисобланиб, қурилиш-монтаж ишларини бошлашга асос бўла олмайди. Қурилиш бош бошқармасининг манзили ва телефон рақамлари: Termiz shahar, Taraqqiyot ko’chasi 42-uy

#	**Архитектура-режалаштириш топшириқларининг қисмлари**	**Қисмларнинг мазмуни**
1	**Архитектура-режалаштириш топшириқларини ишлаб чиқиш учун асос бўлган ҳужжатлар**	"SURXONDARYO VILOYATI HOKIMLIGI YAGONA BUYURTMACHI XIZMATI" Davlat Muassasasining 2026-yil 24-fevraldagi 262735632 – sonli murojaati, Uzun tuman qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo’limining 2026-yil 21-yanvardagi 246933863 – sonli ruxsatnomasi.

2	**Лойиҳалаштириладиган бино ва иншоот (кейинги ўринларда объект деб аталади) ер участкасининг жойлашиши ва бош режада тутган ўрни**	a) ob’yekt rasmiy manzili (rasmiy manzili bo‘lmagan holatda ob’yekt hududiga tutashgan yoki yaqin masofada joylashgan bino yoki inshoot): Amaldagi qonun hujjatlari va SHNQ talablari asosida, Uzun tumani “Yangishahar” mahallasi hududida 2063.44 kv.metr yer maydonida joylashgan 17-son maktabgacha ta’lim tashkilotini rekonstruksiya qilish (90 o‘rinli qo‘shimcha bino qurish) uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish ko’zda tutilgan. Ob’yektning umumiy yer maydoni chegarasi egalik huquqini tasdiqlovchi kadastr yig‘ma jiltida qayd etilgan ma’lumotlar asosida aniqlanadi. b) ob’yekt joylashgan hudud qaysi zonaga mansubli (aholi punktining harakatdagi yoki avvalgi bosh rejasiga asosan):aholi punktining harakatdagi bosh rejasi. v) ob’yekt joylashgan hudud muhandislik tarmoqlari bilan taminlanganligi/ taminlanmaganligi: ta’minlangan.
3	**Лойиҳалаштириладиган объект ҳудудининг табиий-иқлим кўрсаткичлари**	Loyihalashtirilayotgan ob’yektning yer uchastkasi 4-A iqlim (klimat) hududida joylashgan. Havo harorati: o‘rtacha yillik - +36 C eng baland harorat - +45 C eng past harorat - –17 C gacha Iyun – avgust oylarida (absolyut maksimum) - +45 C Dekabr – fevral oylarida - –17 C gacha Ob’yektning qurilishini loyihalashtirish jarayonida eroziya (emirilish), seldan saqlash, suv va shamol eroziyasidan saqlash tadbirlari belgilansin.
4	**Лойиҳалаштириладиган объект ер участкасининг геологик ва топографик жиҳатдан ўрганилганлиги**	Xolatni o‘rganish uchun “O‘ZGASHKLITI” davlat unitar korxonasining filialiga 1:500 nisbatdagi topoxarita ishlab chiqish uchun buyurtma berilsin.
5	**Лойиҳалаштириладиган объект ер участкасининг чегаралари ҳамда унга туташ объектлар ёки ер участкалари тўғрисида маълумот**	Loyihalashtirish uchun tanlangan yer maydoni kuyidagicha chegaralangan: Shimol tomondan – Mavjud yer maydoni Janub tomondan – Mavjud yer maydoni Sharq tomondan – Mavjud yer maydoni G‘arb tomondan – Mavjud yer maydoni
6	**«Қизил чизиқлар ва белгилар»**	Joyni qizil chiziq va chegara nuqtalari M 1:500 nisbatdagi topoxaritada tuman bosh arxitektori tomonidan belgilanib, Surxondaryo viloyati qurilish bosh boshqarmasi bilan kelishilganidan so‘ng, ob’yekt uchun tanlangan yer maydoni tasdiqlangan chegarasidan chiqmasdan, qurilish chiziqlariga amal qilgan holda loyiha ishlarini olib borilishi taminlansin.

7	**Архитектура талаблари**	Loyihani ishlab chiqishda: a) harakatdagi shaharsozlik meyor va qoidalarga amal qilinsin; b) aholi punktining tasdiqlangan bosh rejasiga va uning tegishli qismining batafsil rejalashtirish loyihasiga qatiy rioya etib, ob’yekt atrofidagi mavjud binolarga bog‘langan holda yagona arxitektura ko‘rinishini (ansambili) tashkil etish lozimligi inobatga olinsin; v) ob’yektni rekonstruksiya qilish loyihalarini ishlab chiqishni boshlashdan oldin ayrim holatlarda (buyurtmachining talabiga binoan yoki tashqi ko‘rinishidan avariya holatining alomatlari mavjud bo‘lganda) tegishli litsenziyaga ega bo‘lgan loyiha va boshqa tashkilotlarning ob’yektning holati bo‘yicha hulosasini olish; g) ushbu ART ga muvofiq buyurtmachi tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan, alohida muhim ob’yektlar buyicha viloyat qurilish bosh boshqarmasi bilan kelishilgan loyiha tashkilotlariga 1:500 nisbatdagi topaxaritadagi tasdiqlangan chegaralarga amal qilish; d) ob’yektning 1:500 nisbatdagi bosh rejasini loyihalashtirishda loyiha tashkiloti tomonidan ixtisosi o‘zgarayotgan va rekonstruksiya qilinayotgan bino joylashtirilgan hamda ob’yekt atrofida obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlari aks ettirilgan, ob’yektga kirish-chiqish yo‘llari va avtomobil to‘xtash joylari tashkil etilishi nazarda tutilish; e) ob’yektning balandligi ____ qavatdan kam bo‘lmasligi yoki ____ qavatdan oshmasin (aholi punkti bo‘yicha shaxarsozlik xujjatlari hamda qurish loyihalari mavjud hollarda to‘ldiriladi); j) 2023 yil 1 yanvardan boshlab:yangi quriladigan va rekonstruksiya qilinadigan barcha (shu jumladan, davlat va xususiy) ta’lim muassasalari, sog‘liqni saqlash, madaniyat va turizm, umumiy ovqatlanish, xizmat ko‘rsatish ob’yektlari, sport komplekslari, lokal isitish issiqlik tizimiga ulanadigan ko‘p xonadonli uy-joylar, shu jumladan «Yangi O‘zbekiston» massivlari, shuningdek, umumiy maydoni 1 ming kvadrat metrdan katta bo‘lgan barcha savdo-ko‘ngilochar markazlarining bino-inshootlarini loyihalashtirish va ishga tushirishda issiq suv hamda energiya tejamkorlik lampalari iste’moli hajmining kamida 25 foizi ushbu ob’yektlarda o‘rnatiladigan quyosh suv isitish qurilmalari orqali qoplanishini ta’minlash talab etiladi;
8	**Лойиҳалаштириладиган объект ер участкасида мавжуд бино ва иншоотларни бузиш ёки фойдаланиш бўйича таклифлар**	Loyihachining loyiha topshirig‘iga muvofiq: a) qurilish uchun tanlangan yer uchastkasida buzilishga tushadigan bino va inshoootlarga aniqlik kiritilsin; b) qurilish uchun tanlangan yer uchastkasida mavjud bino va inshootlardan foydalanish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilsin.
9	**Объектни босқичма-босқич қуриш**	Qurilishning murakkabligiga va buyurtmachi tomonidan beriladigan loyiha topshirig‘iga muvofiq qurilishni bosqichma-bosqich olib borish va foydalanishga topshirish jarayonlari nazarda tutilishi mumkin.
10	**Ер майдонини ободонлаштириш ва кўкаламзорлаштириш**	Loyihaning obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish qismida quyidagilar inobatga olinadi; a) ob’yekt joylashadigan hududda iqlim sharoitlarini inobatga olgan holda manzarali daraxtlar, butalar va gullar ekish; b) tegishli hududlari ko‘kalamzorlashtirilgani; v) landshaft arxitekturasining yechimlaridan foydalangan holda daraxtlarning qanday shaklda bo‘lishi; g) mavjud ko‘p yillik daraxtlarning saqlanib qolilishini ta’minlash. Loyiha xujjatlarini kelishish bosqichida ko‘kalamzorlashtirish ishlarini va sug‘orish tizimlarini tashkil etish bo‘yicha ART larda belgilangan talablar bajarilishi nazorga olinsin. Ushbu talablar bajarilmagan holda loyihalarni qayta ishlashga qaratilsin!

11	**Санитария-гигиена талаблари**	Loyihalashtirishda sanitariya-gigiena talablariga rioya etilsin. Loyihalashtirish jarayonida qurilish materiallari turlarini belgilashda O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan taqiqlanmagan va sanitariya materiallaridan foydalanilishi shartligi ko‘zda tutilsin. Ob’yekt uchun yer maydonidan oqib o‘tuvchi kanal yoki ariq mavjud bo‘lgan taqdirda, loyihadagi suv yo‘nalishi xamda suvning muhofaza etish masofalarini saqlash va qirg‘oqlarni obodonlashtirish va mustahqamlash ishlari loyihalashtirish jarayonida inobatga olinsin.
12	**Ёнғиндан сақланиш талаблари**	Yong‘indan saqlanish talablari SHNQ 2.01.02-04 shaharsozlik normalari va qoidalariga asosan loyihalashtirish amalga oshirilsin.
13	**Экология талаблари**	Loyihalashtirishda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish meyorlariga amal qilinsin.
13.1	**Алоқа, почта ва телекоммуникация талаблари**	Loyihalashtirishda aloqa, pochta, axborotlashtirish va telekommunikatsiya sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar, davlat standartlari va me’yorlariga amal qilinsin.
